



YOSHLAR BANDLIGI – DAROMADLARNI OSHIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Boyxonova Sarvara

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti sarvaraboyxonova@gmail.com

Choriyeva Sabrina

sarvinozgafurova848@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar bandlilining mohiyati, uning daromadlarni oshirishdagi o'rni va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bandlikni ta'minlashga yordam beradigan omillar, mavjud imkoniyatlar va yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar tahlil qilingan. Maqola oxirida yoshlar bandligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar bandligi, daromad, ta'lim, kasb-hunar, tadbirkorlik, ish o'rinlari, raqamli iqtisodiyot.

Bugungi kunda yoshlar bandligi masalasi har bir davlat uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki yosh avlod – jamiyatning eng faol, kreativ va taraqqiyotga intiluvchi qatlami bo'lib, ularning ish bilan band bo'lishi iqtisodiy barqarorlikning asosiy omilidir. Band yoshlar nafaqat o'z daromadini oshiradi, balki mamlakatning umumiy rivojiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

-Yoshlar bandligining mazmuni:

Yoshlar bandligi – bu yoshlarning o'z bilimi, ko'nikmalari va qiziqishlariga mos ravishda daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishidir. Bu ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi hamda kelajakda barqaror hayot qurishiga zamin yaratadi.

-Bandlikning daromadlarga ta'siri:

-Band bo'lgan yoshlar: muntazam daromadga ega bo'ladi;

-Ta'lim va malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

-Oilasiga ko'mak berishi osonlashadi;

-Kelajak uchun jamg'arma yaratadi.

- Shu sababli yoshlar bandligining oshishi daromadlarning barqaror va izchil o'sishiga olib keladi.

-Yoshlar bandligini ta'minlaydigan asosiy omillar.

-Sifatli ta'lim va kasbiy ko'nikmalari

Bugungi mehnat bozorida malakali yoshlar ko'proq talab qilinmoqda.IT,marketing, muhandislik va xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda ta'lim olish bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

- Kasb-hunar markazlari va amaliyot dasturlari

Amaliy va stajirovkalar yoshlarning tajriba orttirishiga, ish beruvchilar bilan hamkorlik o'rnatishiga yordam beradi. Bu esa ularni tezroq ishga joylashishiga sharoit yaratadi.

-Yoshlar tadbirkorligi



Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, kreditlar va grandlar yoshlarning o'z beznisini yo'lga qo'yishga katta yordam bermoqda. Hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish, startaplar orqali yoshlar nafaqat band bo'ladi, balki boshqalarga ham ish o'rni yaratadi.

-Raqamli iqtisodiyotning yangi imkoniyatlari

Onlayn ishlash, frilanserlik, grafik dizayn, dasturlash, content yaratish kabi sohalar yoshlar uchun yuqori daromadli yo'nalish bo'lib bormoqda. Internet orqali ish toppish imkoniyatlarining kengayishi yoshlar bandligiga katta hissa qo'shadi.

-Qishloq joylarda yangi ish o'rinlari

Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, issiqxona xo'jaligi, tikuvchilik sexlari kabi loyihalar qishloq yoshlarining daromad topishiga yordam beradi.

Takliflar

- Kasb-hunar o'qitishni yanada kuchaytirish, ayniqsa IT, muhandislik va xizmat ko'rsatish sohalarida.

- Yoshlar uchun bepul yoki arzon stajirovka dasturlarini ko'paytirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish.

-Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi grant va kreditlar sonini oshirish.

- Raqamli iqtisodiyot bo'yicha onlayn kurslar va treninglarni ko'paytirish, internetdan daromad topish imkonini kengaytirish.

- Hududlarda, ayniqsa qishloqlarda yangi ish o'rinlari yaratish, kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish markazlarini rivojlantirish.

- Yoshlar bandligi bo'yicha monitoring tizimini kuchaytirish, yoshlarning ehtiyojlarini o'rganib, ularga mos dasturlar ishlab chiqish.

Xulosa

Yoshlar bandligi – daromadlarni oshirishning eng muhim va barqaror omillaridan biridir. Ta'lim, kasb-hunar, innovatsion texnologiyalar, tadbirkorlik va mehnat bozorida yaratilgan imkoniyatlar yoshlarning iqtisodiy faolligining oshishiga xizmat qiladi. Band bo'lgan yoshlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida faol rol o'ynaydi.

Va yoshlarni bu borada ilmiy salohiyatini oshirishga qaratiladigan barcha islohotlarni yanada mukammallashtirish haqida bir qancha ma'lumot berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari va qarorlari.

2. "O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash strategiyasi" – Yoshlar ishlari agentligi materiallari, 2022–2024 yillar.

3. Xolmatov B., To'xtayev N. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda yoshlarning o'rni. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.

4. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023.

5. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(22), 316-321.



6. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. Science and innovation, 2(B12), 881-887.